

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS**

TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

5630100-ekologiya va atrof muhit muxofazasi ta`lim yo`nalishi
bitiruvchisi

Dadaxanov Ravshan Valijon o`g`lining

**«O`ZBEKISTONING MING YILLIK
RIVOJLANISH MAQSADLARIDA EKOLOGIK
MASALALAR» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BMI rahbari: g.f.d., prof.

B.Kamalov

Namangan – 2017 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB: MINGYILLIK RIVOJLANISH KONTSEPTSIYASI.....	6
1.1. Mingyillik rivojlanish kontseptsiyasining yuzaga kelishi.....	6
1.2. Mingyillik rivojlanish maqsadlari.....	11
1.3. Mingyillik rivojlanishda xalqaro hamkorlik.....	14
II-BOB: O'ZBEKISTONNING MINGYILLIK RIVOJLANISHIDAGI ISHTIROKI.....	20
2.1. O'zbekistondagi hozirgi holatni baholash.....	20
2.2. O'zbekistonda mingyillik rivojlanishida ekologik masalalar.....	29
2.3. O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash.....	41
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	48

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Bizga ma'lumki, bugungi kunda ko'pgina min-taqalarda turli ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar sabab qashshoqlik va og'ir sharoitda kun kechirayotgan millionlab odamlar taqdiri, ekologik vaziyatning izdan chiqishi natijasida ba'zi hududlarning xavfli kasalliklar o'chog'iga aylanib qolayotgani, bolalar o'rtasida o'lim holatlarini keltirib chiqaruvchi zotiljam, ichburug', qizamiq va bezgak xastaliklarining ortib borayotgani tom ma'noda xalqaro siyosatda yangicha munosabatlar shakllanishini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan xalqaro muammolarni hal qilishda yangicha - zamonaviy yondashuvning asosiy xususiyatlari ilgari surilishi, unda umuminsoniy manfaatlarning ustuvorligi, ekologik tafakkur, siyosiy muammolarni tomonlar manfaatini hisobga olgan holda hal qilish mexanizmlariga ega bo'lish, ishonch - muloqotning asosiy shakli ekanligi umumiy xavfsizlik muhitini yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z ichki va tashqi siyosatini demokratik tamoyillar asosida olib borayotgani, BMT tomonidan ilgari surilayotgan hayotiy dasturlar ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etayotgani mamlakatimizning dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan chetda emasligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi, Markaziy Osiyodagi bugungi jarayonlar, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, ekologik muammolar, Afg'oniston mojarosini hal etish masalalari o'rin olgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni bajarish davomida, mamlakatimizda mingyillik rivojlanish maqsadlari kam ta'minlanganlikni va qoniqarsiz oziqlantirishni qisqartirish, boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash, ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, bolalar o'limini kamaytirish, onalar sog'lig'ini yaxshilash, OITS/OIV, sil va boshqa kasalliklarga qarshi kurash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, rivojlanish maqsadlarida global sherikchilikni

rivojlantirish singari asosiy yo'nalishlarini ekologik nuqtai nazardan taxlil qilish mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Inson taraqqiyoti g'oyalari va printsiplarini amalga oshirishda birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil sentyabr oyida BMT sammitida qilgan "Mingyillik taraqqiyot maqsadlari" mavzuidagi nutqi, mamlakatimizda mingyillik rivojlanish maqsadlari "Aholi farovonligini oshirish strategiyasi bo'yicha oraliq hujjat"lari asosida O'zbekiston uchun quyidagi sakkiz maqsad belgilab olinganligi, keng qamrovli va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan taraqqiyotning "o'zbek modeli" hamda birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da belgilab berilgan kompleks chora-tadbirlar, huquqiy normalar O'zbekistonda mingyillik rivojlanish maqsadlari vazifalariga to'la javob beradigan davlat siyosati mavzuni o'rganish uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur **tadqiqotning maqsadi** Jahonda ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha Mingyillik rivojlanish maqsadlari ijtimoiy-ekologik ahamiyatini o'rganish.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda ishda quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Yer yuzida ekologik vaziyatning siyosiy tahlilini ko'rib chiqish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish zamonaviy ekologik siyosatda dolzarb muammo ekanligini o'rganish;
- Xalqaro ekologik hamkorlik va unda BMTning tutgan o'rnini taxlil qilish;
- Mingyillik rivojlanish maqsadlarida BMT tomonidan qabul qilingan konvensiya va dasturlarning siyosiy ahamiyatini tadqiq qilish;
- Dunyo mintaqalaridagi bioxilma-xillikni saqlash muammolari va BMTning muammoni bartaraf qilishdagi chora-tadbirlarini ko'rib chiqish;
- Atrof-muhit muammosining O'zbekiston Respublikasi iqtisodi va siyosatiga ta'sirini aniqlash;

- O'zbekiston Respublikasining mazkur muammoni hal kilishda BMT bilan o'zaro hamkorligini yoritish.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Mingyillik rivojlanish maqsadlarining jahonda ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha siyosiy tabbuslari va harakatlari. Tadqiqot predmeti sifatida jahonda sodir bo'layotgan ekologik holat. Atrof-muhit muhofazasi muammosi jahonda ekologik muammodan siyosiy muammoga aylanib borayotgan dolzarb muammo hisoblanadi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati. Mingyillik rivojlanish dasturi doirasida ishlab chiqilgan loyihalar, amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va dasturlar mavzuni ilmiy jihatlarini belgilaydi. Mamlakatimizda BMTning bir qator tuzilmalari – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Jahon banki, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Bolalar jamg'armasi, Aholishunoslik jamg'armasi, Taraqqiyot dasturi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasi, OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi kabi tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatayotganligi va ular bilan hamkorlikda 440 dan ziyod loyiha amalga oshirilganligi mavzuni amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Ishning tarkibiy. BMI kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalangan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Uning umumiy hajmi 50 bet, shundan matn qismi 46 betni tashkil etib, 2ta grafik, 2 ta jadvaldan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti bayon etilgan.

Birinchi bob - Mingyillik rivojlanish kontseptsiyasida mavzuning o'rganilganlik darajasi, mingyillik rivojlanish kontseptsiyasining yuzaga kelishi, mingyillik rivojlanish maqsadlari va mingyillik rivojlanishda xalqaro hamkorlik masalalari to'g'risidagi ma'lumotlar taxlil qilingan.

Ikkinchi bob - O'zbekistonning mingyillik rivojlanishidagi ishtiroki, O'zbekistondagi hozirgi holatni baholash, O'zbekistonda mingyillik rivojlanishida ekologik masalalar va O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan.

BMIning xulosa qismida bajarilgan ishlar natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha xulosalar, tavsiya va takliflar keltirilgan.

I-BOB: MINGYILLIK RIVOJLANISH KONTSEPTSIYASI

1.1. Mingyillik rivojlanish kontsepsiyasining yuzaga kelishi

Oxirgi 50 yil ichida sayyoramiz aholisi soni 3,5 barobarga, iste'mol qilinayotgan ichimlik suv hajmi 11 barobarga, haydaladigan yerlar maydoni 2 martaga, ro'yxatdan o'tgan transport vositalari soni 10 martaga, neft mahsulotlaridan foydalanish 7 martaga, elektr stantsiyalari quvvati 21 martaga oshdi. Hayvonot va o'simlik olami turlari esa 20 foizga kamaydi. Har yili atmosfera havosiga 5 milliard tonna karbonad angidrid gazi, 200 million tonna uglerod oksidi, 146 million tonna sulfat oksidi, 35 million tonna azot oksidi tashlanmoqda. Insonning nooqilona faoliyati natijasida biosferada ko'plab qaltis jarayonlar sodir bo'lmoqda.

Kech bo'lsada, insoniyat tabiiy muhitga ehtiyotkorona va oqilona munosabatda bo'lish kerakligiga ishonch hosil qildi. Ekologik muvozanatni saqlash barcha davlatlardan kuchli iroda va katta siyosiy kuchni ishga solishni talab etmoqda. 1992 yilning iyun oyida Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasida XXI asrda insoniyatning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan hujjatlar qabul qilindi. Mazkur anjumanda ilk marta tabiatdan foydalanishning amaldagi bozoriste'moli modeli insoniyatni juda tezlikda tabiat inqiroziga, hatto halokatga olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi muhim xulosaga kelindi.

Vaqt o'tishi bilan "barqaror rivojlanish" tushunchasi barqaror ekologik rivojlanishga tenglashdi. Barqaror rivojlanish Kontseptsiyasi 2002 yil sentyabr oyida Yoxannesburgda bo'lib o'tgan BMTning Mingyillik Sammitida yangi bosqichga ko'tarildi. O'sha sammitda butun dunyo mamlakatlari rahbarlari qashshoqlikka barham berish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun BMTning Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasini qabul qildilar.

Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari BMTga a'zo davlatlar tomonidan 2000 yil sentyabrda Mingyillik Sammitida qabul qilingan, Mingyillik Deklaratsiyasida belgilab berilgan. Bu butun dunyoda qashshoqlikni bartaraf etish va odamlarning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan, erishilishi muayyan vaqt bilan chegaralangan maqsadlardan iborat.

2002 yilning aprel` oyida Gaaga shahrida bo`lib o`rgan “Biologik xilmaxillik to`g`risida”gi Konventsiya tomonlarining VI anjumanida “O`simliklarni saqlash global strategiyasi” qabul qilindi. Uning asosiy va uzoq muddatli maqsadi o`simlik xilmaxilligining uzluksiz qisqarib borishini to`xtatishdir. SHu maqsadda ushbu dasturga genetik xilmaxillik, sistematika va taksonomiya, ekologik va biologik usullar bilan o`simliklarni himoya qilish masalalar bo`yicha ham yovvoyi tabiat, ham inson faoliyati sharoitida ilmiy tadqiqotlarni olib borishga yordam ko`rsatish kabi vazifalar kiradi.

«Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari bizning umumiy nuqtai nazarimiz - yaxshi kelajakni ta`minlash yo`lida boy va kambag`al mamlakatlar orasidagi hamkorlikni ifodalaydi. Hozirgi globallashuv davrida xalqaro hamjamiyat umumiy ravnaq yo`lida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan ehtiyojlarni mutanosiblashtirishi kerak. Umuman olganda dunyo hamjamiyatida global rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish masalasini tezlashtirishni taqazo etmoqda.

Global rivojlanish — bu kambag`al davlatlar gullab-yashnayotgan davlatga aylanishi uchun butun dunyo bosib o`tishi kerak bo`lgan yo`l. Buning uchun insoniyat yer kurrasining kelajagi oddiy, biroq juda muhim narsalarga bog`liq ekanligini anglashi darkor. Dunyoning barcha mamlakatlaridagi hamma odamlar har kuni kosasida ovqat; har tun boshi uzra boshpana; farzandlari uchun maktab; xastalanganlarida shifokor va dori-darmon; pul ishlab topishiga imkon beruvchi ishga ega bo`lishlari kerak. Rivojlanish o`z-o`zidan sodir bo`lmaydi. Rivojlanishga ko`p yillik nizolarni bartaraf etishdan tortib, savdo-sotiqni rag`batlantirishda, kishilar salomatligini mustahkamlashda va ta`lim darajasini oshirishda yordam ko`rsatishgacha bo`lgan turli omillar ta`sir ko`rsatadi. bu hayot uchun zarur.

«Rivojlanishdan ko`zlangan asosiy maqsad kishilarning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Aslida, bu imkoniyatlar cheksiz bo`lishi va vaqt o`tishi bilan o`zgarishi ham mumkin. Odamlar o`zlarining daromad va o`sish ko`rsatkichlarida umuman aks etmaydigan yoki darhol aks etmaydigan bilim olishning keng imkoniyati, to`yimli oziqlanish va tibbiy xizmatlarning sifati oshishi, kafolatli

hayot manbai, jinoyat va jismoniy zo'ravonlikdan himoyalaniishi, bo'sh vaqtni tashkil etish bo'yicha ehtiyojlarining qondirilishi, siyosiy va madaniy erkinliklar hamda ijtimoiy hayotda faol qatnashish imkoniyati singari yutuqlarni doim ham qadrlayvermaydilar. Rivojlanishning maqsadi insonlar uzoq, sog'lom va ma'naviy hayot kechirishini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratishdan iborat».

Jaxon mamlakatlari hamkorligida mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning muhim hususiyatlari quyidagilar:

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha milliy va xalqaro harakatlar samaradorligini oshirishuvchi katta qadam bo'lganligi uchun ham muhimdir. BMTga a'zo davlatlar Deklaratsiyani imzolab, MRMga erishish majburiyatlarini o'z zimmalariga oldilar.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari tarixda ilk bor butun xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan va muayyan vaqt ichida, mo'ljalga ko'ra 2015 yilga borib erishilishi lozim global maqsadlar bo'lganligi uchun ham muhimdir.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari dunyoning shimol va janubga bo'linishi ko'pchilik mamlakatlarni noqulay ahvolga solib qo'yganligi, kam rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish va sog'liqni saqlash xizmatlaridan bahramand bo'lish, suv manbalari va sanitariyadan foydalanish imkoni, ishga joylashish imkoniyatlari, erkak va ayollar huquqidagi va boshqa jabhalarda tengsizlik saqlanib qolayotgani uchun ham muhimdir. Yer kurrasining 20%da yashaydigan rivojlangan mamlakatlar dunyo resurslarining 80%ni nazorat qiladi. Insoniyat rivojlanishi uchun bu masala yana qayta ko'rilishi lozim.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun teng darajada muhim. Na kasallikning, na atrof muhit ifloslanishining chegarasi bor. Harakatlarimizni birlashtirsakkina, kelgusi avlodlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaymiz.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari keng jamoatchilikka rivojlanish jarayonida ishtirok etish imkoniyatini yaratadi va kishilar hamda davlatni rivojlanish maqsadida birlashtiradi.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari odamlarni va ularning hayoti yaxshilanishini ko'zlagani uchun ham.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari rivojlangan mamlakatlar zimmasiga rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlarga ko'rsatiladigan yordamni ko'paytirish va umumiy taraqqiyot uchun ularning javobgarligini oshirgani uchun ham muhimdir.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari ochlik, kasallik va sanitariya sharoiti yo'qligi tufayli dunyodan ko'z yumayotgan millionlab odamlar hayotini tubdan o'zgartirish vaqti kelganligi uchun ham muhimdir.

- Ming yillik rivojlanish maqsadlari mustaqil bilim egallashda, uni tushunib yetishda hamda Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga erishishda shaxsiy hissa qo'shishda har kimga yordam berishi mumkin bo'lganligi uchun ham muhimdir.

Dunyo miqyosida ekologik muvozanatni saqlash, davlatlararo hamkorlikni ta'minlash va mingyillikni rivojlantirish maqsadida XXI asrning so'ngi o'n yilida BMT tomonidan barcha davlatlardan katta ijtimoiy-siyosiy irodani va katta siyosiy kuchni ishga solishni talab etmoqda.

1992 yilning iyun oyida Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha BMT konferensiyasida XXI asrda insoniyatning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan hujjatlar qabul qilindi. Mazkur anjumanda ilk marta tabiatdan foydalanishning amaldagi bozor-iste'moli modeli insoniyatni juda tezlikda tabiat inqiroziga, hatto halokatga olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi muhim xulosaga kelindi. Anjumanda ikkita xalqaro bitim imzolandi hamda Butunjahon barqaror rivojlanish maqsadlari printsiplari va Asosiy Harakatlar rejasi to'g'risidagi ikkita bayonot qabul qilindi.

“XXI asr kun tartibi” - kelgusi yuzyillikka mo'ljallangan, Rio-de-Janeyro shahrida 170 dan ortiq davlat vakillarining umumiy kelishuvi asosida qabul qilingan ulkan dastur hisoblanadi. Barcha davlatlar tomonidan qabul qilinadigan, kelajakda atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qarorlari Rio deklaratsiyasida mustahkamlangan asosiy tamoyillarga asoslanishi shart bo'lgan.

2000 yilning sentyabr oyida Nyu-Yorkda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarorgohida insoniyat tarixida dunyo yetakchilarining eng yirik uchrashuvi - ming yillik Sammiti bo'lib o'tdi. O'sha muhim burilish yasagan yili Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan 189ta davlatlar vakillari butun sayyoramiz miqyosida eng dolzarb rivojlanish masalalarini muhokama qilish uchun uchrashdilar. Mamlakatlar yanada jadal rivojlanish, aholining yanada yuqori turmush darajasi va yangi imkoniyatlarni va'da qiluvchi rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari tufayli bir-biri bilan har qachongidan samarali aloqalarni yo'lga qo'ygan edilar.

Biroq turli mamlakatlarda odamlar hayotining sifati tenglashtirib bo'lmaydigan darajada edi. Ayrim mamlakatlar o'z taraqqiyoti va global hamkorligini rejalashtirib, shu yo'lda dadil odimlayotgan bir paytda, qashshoqlik botqog'iga g'arq qilingan, hech tugamaydigan qambag'allik, mojarolar va atrof-muhit yomonlashayotgan sharoitlarida hayot kechirayotgan ko'pgina boshqa mamlakatlarning kelajagi dargumon edi.

Ushbu muammolarni birgalikda hal qilishga kirishish uchun 2000 yilda mamlakatlar yetakchilari ming yillik Deklaratsiyasini qabul qildilar. Ushbu hujjatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, atrof-muhitni yaxshilash va inson huquqlarini himoya qilish uchun birgalikdagi ustuvorliklar bayon etilgan. Bu sa'y-harakatlar butun insoniyat kelajagini ta'minlash hamda uning omon qolishi uchun zarur bo'lgan muhim qadamlar bo'ldi. Davlatlar yetakchilari inson rivojlanishi barcha mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga va butun jahon xavfsizligiga erishishning eng asosiy omili, degan fikrga yakdillik bilan qo'shildilar.

1.2. Mingyillik rivojlanish maqsadlari

Mingyillik rivojlanish maqsadlari bundan 17 yil avval qabul qilingan edi. Bu maqsadlar taraqqiyot uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qildi va natijada bir qator

yo'nalishlar bo'yicha salmoqli oldinga siljishga erishildi. Ammo, shu bilan birga, ushbu oldinga siljish bir tekisda bo'lmadi va ushbu maqsadlarning ba'zilariga erishilmaganicha qolinmoqda.

2015 yilning 25–27 sentyabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan 193 ta mamlakatning davlat va hukumat rahbarlari 2030 yilga qadar bo'lgan vaqt mobaynida insoniyatning barqaror rivojlanishi borasida yangi global maqsadlar yuzasidan kelishib olish uchun yig'iladilar. Ular insonlar, yer kurrimiz va taraqqiyot uchun harakat rejasini qabul qiladilar va ushbu reja kengroq erkinlik sharoitida butun dunyoda tinchlikni barqarorlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Yangi kun tartibi Mingyillik rivojlanish maqsadlariga asoslangan bo'ladi va erishilmay qolgan maqsadlar hayotga tadbiq etilishiga qaratiladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari barcha inson huquqlarini qamrab oladi hamda barchaning sha'nini ilgari suradi. Xususan, ushbu maqsadlar quyudagilarga yo'naltirilgan bo'ladi:

- Qash'shoqlik va ocharchilikka chek qo'yish;
- Barcha uchun ta'lim, sog'liqni saqlash hamda asosiy ijtimoiy xizmatlarni ta'minlash;
- Jinslar tengligini ta'minlash hamda barcha ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;
- Mamlakatlar ichida hamda mamlakatlararo tengsizlikka qarshi kurashish;
- Inklyuziv iqtisodiy o'sish, umumbashariy taraqqiyot hamda barcha uchun barqaror hayot standartlarini qo'llab-quvvatlash;
- Xavfsiz va farovon shaharlar hamda aholi punktlarini targ'ib etish;
- Er kurrasini himoya qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, tabiiy resurslardan barqarorlik asosida foydalanish hamda okeanlarimizni himoya qilish;
- Boshqarishni takomillashtirish hamda tinchliksevar, bexatar, adolatli hamda inklyuziv jamiyatni targ'ib qilish;
- Barqaror rivojlanish uchun global hamkorlikni qayta tiklash.

Sayyoramizda o'ta qashshoqlik sharoitida yashovchi 1 milliard kishidan 238 millioni yoshlardir. **Birinchi-maqсад** hayotni qo'llab quvvatlash uchun ularning to'yimli moddalarga boy oziq-ovqat, kiyim-kechak, toza suv, uy-joy va tibbiy xizmatlarga bo'lgan—asosiy ehtiyojlarini qondirish orqali ularni o'ta qashshoqlikdan olib chiqishdan iborat. Buning uchun yoshlar ochlik hamda qashshoqlik ta'siriga ko'proq duchor bo'luvchi zaif guruhlar sirasiga kiradi.

Har yili 10 milliondan ortiq bola ochlik va oldini olish mumkin bo'lgan kasalliklardan nobud bo'ladi - bu kuniga 300 mingdan ortiq yoki har uch sekunda bir bola nobud bo'ladi, degani. Berilgan statistik ma'lumotlar dunyoda 600 million bolalarni o'ta qashshoqlik sharoitida yashashini ko'rsatadi. Bugungi kunda 38 milliondan 110 milliongacha yoshlar to'yib ovqatlanmasligi va yaxshi sharoitga ega emasligi aniqlangan. Har yili 11 millionga yaqin bola 5 yoshga to'lmay, to'yib ovqatlanmaslik sababli dunyodan ko'z yumadi. Demak, bunday hodisalar butun dunyoda eng murakkab muammo sifatida o'rni olgan. Ko'p hollarda kambag'allik chegarasi tushunchasi kambag'allikni o'lchash uchun asos sifatida olinadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, o'ta qashshoqlikning global ko'rsatkichi kuniga 1 AQSH dollaridan kam darajaga muvofiq keladi.

Barcha bolalar **ta'lim olishda teng imkoniyatga** ega bo'lishi lozim. Ko'p oilalar bolalar ta'limi uchun pul to'lay olmaydi, ko'pchilik hollarda aynan qiz bolalar boshlang'ich maktabga qatnamaydilar. Umumiy boshlang'ich ta'limni ta'minlash millatning kelajakdagi xavfsizligi uchun eng yaxshi sarmoyadir. Ta'lim har bir odamga yaxshi hayot qurishi uchun muqobillik va imkoniyatlar yaratib, kambag'allikni qisqartiradi. Umumiy boshlang'ich ta'limsiz Mingyillik rivojlanishining boshqa maqsadlariga erishib bo'lmaydi. O'qimishli ayollar o'z salomatliklari haqida ko'proq qayg'uradilar, o'z farzandlariga yaxshiroq tarbiya beradilar va ularda farzand kamroq bo'ladi, ular tezroq tibbiy yordam oladilar va o'z bolalarini yaxshiroq parvarishlab, oziqlantiradilar. Bu ochlik, bolalar va onalar o'limini, OIV/OITS tarqalishini va atrof muhitga yetkaziladigan zararni kamaytiradi.

Barcha mamlakat va jamiyatlarning istiqboli bolalar qanchalik sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bunda onalar hayotda so'zsiz muhim o'rinni egallaydi. Aynan onalar homiladorlik vaqtidan boshlab, bolaga hayot baxsh etadilar. Ko'pchilik farzandi tug'ilgan kunni hayotidagi eng baxtli kun deb hisoblaydi. Afsuski, kambag'al mamlakatlarda onalar ko'pincha tug'ruq paytidayoq dunyodan ko'z yumadilar. Onalar sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilar ekanmiz, bu bilan kelajak avlodning salomatligi haqida g'amxo'rlik qilgan bo'lamiz. Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan, tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarida ayollarning tug'ruq paytida o'lish ehtimoli 16 ga 1 ni tashkil qiladi, bola kam tug'iluvchi Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich 2000 ga 1 ni, SHimoliy Amerikada esa — 3500 ga 1 tashkil etadi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarining dastlabki yettita maqsadiga erishishdan iborat. Ular aholi uchun yanada yuqori turmush darajasini ta'minlash uchun bor kuchlarini ishga solishlari kerak. Bunga erishish uchun, o'z navbatida, boy mamlakatlar kambag'al mamlakatlarga 2015 yilgacha samarali yordam ko'rsatishlari mutlaq zarur. «Biz, bugungi kunda oldimizda turgan bosh vazifa — globallashtirish jahondagi barcha xalqlar uchun ijobiy omil bo'lib qolishini ta'minlashimiz lozim», — deb ta'kidlanadi Deklaratsiyada. Dunyo yetakchilari qashshoqlikni yangi yuz yillikda insoniyat uchun eng xavfli muammo, deb ataydilar va «rivojlanishga hamda qashshoqlikni tugatishga ham milliy, ham global darajada qulay imkoniyat yaratadigan sharoit tug'dirishga qat'iy niyat» qilganliklarini e'lon qildilar. Dunyo yetakchilari bu niyatlarni ro'yobga chiqarish uchun Deklaratsiyada keyinchalik Mingyillik rivojlanish maqsadlariga birlashtirilgan bir qator aniq, vaqt bilan cheklangan rivojlanish maqsadlarini belgiladilar. Dastlabki yetti maqsad OIV/OITS tarqalishidan tortib, umumiy boshlang'ich ta'limni ta'minlashgacha bo'lgan muammolar keng doirasini o'z ichiga oladi, ularning hal etilishi qashshoqlik darajasini ikki baravar qisqartirishga olib kelishi darkor, ayni mahalda hamma maqsadlarga 2015 yilgacha erishilishi lozim. Sakkizinchi maqsad — «Rivojlanish maqsadlaridagi global hamkorlik» — rivojlangan mamlakatlar o'z zimmlariga olgan bir qator majburiyatlardan iborat

bo'lib, bular yordam hajmini oshirish, kamsitmaydigan savdo-sotiq tizimini yaratish va qarzlardan kechishdir.

1.3. Mingyillik rivojlanishda xalqaro hamkorlik

BMTning O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlariga e'tibori kuchayib bormoqda. Tashkilotning mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, xavfsizlikni mustahkamlash, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish, ekologik muammolarni bartaraf etish va suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish masalalarini hal qilishdagi hamkorligini yuksak qadrlaymiz. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi globallashuv jarayonlarining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Globallashuv davri yangi texnologiyalar sohasida, jahon miqyosidagi savdo va sarmoya harakatini rivojlantirishda katta ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bugun insoniyat kechagi kundan ko'ra farovonroq, sog'lomroq va bilimliror bo'lish umidi bilan yashamoqda. Yer yuzida qashshoq va boy mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bilan bog'liq muammolardan tashqari OIV/OITS, sil, parranda grippi kabi xavfli kasalliklar, global ekologik muammolar inson taraqqiyotiga to'sqinlik qilmoqda. SHuningdek, 2008 yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ham globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda inson taraqqiyoti borasida erishilgan ayrim yutuqlarni shubha ostiga qo'yib, ularni orqaga surib yubordi. Insoniyatni taraqqiy ettirishdan ko'zlangan asosiy maqsad esa insonlarning yaxshi daromad orttirib, imkon qadar uzoq va sog'lom umr kechirishi hamda bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lishi uchun imkon yaratadigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik muhitni yaratishdan iborat. Inson rivojlanishi kontseptsiyasining boshlanishini insoniyat tarixining boshlang'ich davrlari, ko'plab madaniy va diniy manbalardan topish mumkin. Nafaqat qadimdagi muarrixlar, balki faylasuflar ham (Demokrat, Platon, Arastu, Lukretsiy va boshqalar) ijtimoiy rivojlanish mohiyatini anglashga harakat qilgan. O'rta

asrlarda yashab ijod qilgan Didro ana shunday faylasuflar sirasidan. U insonni Yer yuzida eng qadrli, madaniyat sohasidagi yutuqlarning yagona bunyodkori, aql sohibi, hamma narsaning ibtidosi va intihosi deb hisoblagan. Inson rivojlanishi kontseptsiyasining asosiy qoidasi odamlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish vositasi, balki uning asosiy maqsadi hisoblanishini taqozo etadi. «Inson rivojlanishi - odamlar o'z salohiyatini to'liq rivojlantirib, o'z ehtiyoj va manfaatlariga muvofiq sermahsul ijodiy hayot kechira oladigan atrof-muhitni yaratishdir. Tanlash imkoniyatini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratish juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yildan boshlab inson rivojlanishi mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirishga kirishilgan iqtisodiy, ijtimoiy, va siyosiy islohotlarning bosh maqsadiga aylandi. O'zbekistonda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos modelida ijtimoiy siyosat avval boshdanoq markaziy o'rinni egalladi. Sobiq sovet ittifoqi respublikalari ichida O'zbekiston birinchi bo'lib, aholini ijtimoiy himoya qilish – o'tish davrida davlat siyosatining asosiy ustuvorliklaridan biri ekanligini e'lon qildi. Mamlakatimizda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xalq farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan barcha keng miqyosli ishlar O'zbekistonda BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlari keng ko'lamda bajarilishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish borasida erishgan yutuqlari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari va iqtisodiy institutlar, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va dunyoning boshqa bir qator yetakchi moliyaviy institutlari tomonidan e'tirof etildi. Umumta'lim o'quvi davlat tomonidan kafolatlanadi. 7-15 yoshdagi bolalarning boshlang'ich va umumiy ta'limga qamrab olinishi, shuningdek aholining savodxonlik darajasi mutlaq o'lchamlarga mos keladi. Bu esa BMTning

boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish sohasidagi Ming yillik rivojlanish maqsadlarining O'zbekiston tomonidan ancha ildam bajarilayotganligini to'la tasdiqlaydi. O'zbekiston ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida turadi. O'zbekistonda ta'lim ko'rsatkichi 0,99 ni tashkil etsa, ayni paytda dunyoda bu ko'rsatkich 0,77 ni tashkil qiladi. Savodxonlik darajasi hamda o'rta va kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quvchilar hissasini iqtisodiy rivojlangan davlatlardagi ko'rsatkichlar bilan qiyoslash mumkin bo'lgani uchun O'zbekistonda global MRM-2ga erishilgan. Respublikada keyingi o'n yil mobaynida ko'plab maktablar, kollejlari, litseylar va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash evaziga pedagoglar hamda o'quvchilar soni ko'paymoqda, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi rivojlantirilmoqda. 2000–2006 yillarda oliy o'quv yurtlarida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Bakalavriat va magistratura mutaxassisligiga qabul qilish tegishli ravishda 1,3 va 2 martaga oshdi, boz ustiga oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan xotin-qizlar soni ham 1,6 marta o'sdi. 2005–2006 yillarda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan yarim milliard AQSH dollaridan ortiq mablag' ajratildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o'rtacha o'qish muddati 12 yilni tashkil etdi. Bu Ozarbayjon, Armaniston, Turkiya va inson rivojlanishi bo'yicha o'rtacha indeksga ega boshqa qator mamlakatlarga qaraganda ancha ko'pdir.

O'zbekistonda gender tengligini rivojlantirish borasida ham ko'p ishlar amalga oshirildi. Masalan, ta'lim sohasida gender tenglik muammosi hal etilgan. 1995 yilda Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasini imzolagan paytdan boshlab O'zbekiston hukumati o'zining gender tenglik qoidalari va ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish borasidagi majburiyatlarini qaytadan tasdiqladi. Barcha sakkiz MRM uchun, erkaklar va ayollar ularga erishishdan teng darajada yutishi mumkin bo'ladigan tarzda, gender yondashuviga erishiladi. Hukumat ayollarning huquqlarini himoyalash hamda ular jamiyat va davlatda o'ynaydigan rolni kuchaytirishni ta'minlash uchun qator qarorlar qabul qildi.

Mingyillik rivojlanish maqsadlari orasida atrof-muhit muhofazasi masalalari alohida o'rin tutadi. Bu sohada olib borilayotgan milliy siyosat atrof-muhit muhofazasi va energetika kuchlari tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga, iqlim o'zgarishi va tiklanadigan energetika manbalariga, shuningdek institutsional va mahalliy miqyosdagi hamkorlikning chuqurlashtirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunga kelib "O'zbekistonda Musaffo Rivojlanish Mexanizmi uchun imkoniyatlarni yaratish" BMTRD loyihasi katta ijodiy natijalarga erishdi. "Qoraqalpog'iston va Qizilqum cho'llaridagi tanazzulga uchragan yerlarda ekotizim barqarorligini amalga oshirish" va "Amudaryo daryo del'tasi va Qoraqalpog'istonda to'qay o'rmonlarini saqlash va qo'riqlanayotgan hududlar tizimini mustahkamlag" loyihalari O'zbekistondagi noqulay ekologik mintaqalaridagi muammolar yig'imini yechishga qaratilgan. "O'zbekiston neft-gaz sektorida bioxilma-xillikni asrash tamoyillarini integratsiyalash", "O'zbekistondagi ijtimoiy-maishiy ob'ektlar energota'sirini oshirish", "Maqsadli institutsional mustahkamlash va professional rivojlanish yo'li bilan Rio konventsiyasini tadbiq qilish uchun milliy imkoniyatlarni mustahkamlash", "O'zbekistonda barqaror chorvachilik rivojini qo'llab-quvvatlash" kabi yaqinda boshlangan "yosh" loyihalar Muqobil rivojlanish jabhasida dolzarb va muhim yo'nalishlarni aks ettirib, kelajak rivoji uchun poydevor yaratayotir.

Hozirda Mingyillik deklaratsiyaga muvofiq Jahon banki o'z faoliyatini ming yillikdagi rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirgan. Bretton-Vuds halqaro hamkorligi tomonidan Jahon bankiga belgilangan vazifalar unga berilgan nom – ya'ni Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) da o'z aksini topdi.

Asosiy vazifa sifatida iqtisodiy taraqqiyotni moliyalshtirish yuklatildi. Agarda Jahon bankining birlamchi kreditlari ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropaning iqtisodiyotini tiklashga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z e'tiborini jahonning qoloq mamlakatlari iqtisodini tiklashga qaratdi. Hozirgi

**Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tahliliy-konsul`tatsion xizmatlar, ta'lim faoliyati, Jahon banki instituti,
B-SPAN internet-translyatsiya xizmati.**

<ul style="list-style-type: none"> • Qashshoqlik muammolari • Oziq-ovqat bilan ta'minlanish muammosi • Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va yerdan foydalanish bilan bog'liq • Boshqa iqtisodiy sektorlar • Rivojlanayotgan mamlakatlarda • OITS bilan kurashish muammolari • Korruptsiya bilan kurashish • Virusli kasalliklar tarqalishi • bilan kurash • Bezgak bilan kurash Bolalik va • O'smirlik 	<ul style="list-style-type: none"> • Energetikani rivojlantirish, energiya manbala-riga chiqish va yangi manbalarni izlash muammolari • Rivojlanayotgan Mamlakatlardagi iqtisodiy siyosat va qarzdorlik muammolari • Rivojlanishstrategiya lari • ni ishlab chiqish • Rivojlanayotgan Mamlakatlarga investitsiyalash muammolari • Ta'lim muammolari • Atrof-muhit muammosi • Iqlimning o'zgarishi va uni insonlar hayotiga ta'siri 	<ul style="list-style-type: none"> • Insoniyatnin g rivojlanishining strategik vazifalari • Iqtisodiy o'sish, Soliqqa tortish, qarz-dorlik muammolari • Moliyaviy inqiroz • Bank sohasi, moliyaviy bozorlar, to'lov tizimlarini rivojlantirish • Globallashu v • Narxlarning oshishi, donor-mamlakatlardagi muammolar • Urbanizatsiya • Mahalliy 	<ul style="list-style-type: none"> • Transport • Savdo • Publikatsiya, seminarlar • Migratsiya muam-molari • Gaz, neftъ Tog'-kon sanoati • Gender muammola-ri • Internet va aloqa • Huquq va rivojlanish • Iqtisodiyot n ing xususiy sektorini rivojlantiri
---	--	--	--

muammolari		moliyalashtir ish	
------------	--	----------------------	--

vaqtda esa Jahon bankining asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga, mazkur mamlakatlarning ishlab chiqarish darajasini oshirishga yordam berish va aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga ko'maklashishdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti mamlakatlar orasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish uchun asos yaratishni va butun dunyoda inson qadr-qimmatini rolini oshirishni ta'minlovchi jahon tashkilotidir. BMT dunyoni o'zgartirishga va uni hayot uchun yanada yaxshi qilishga intiladi. BMT rivojlanish maqsadidagi harakatlar borasida xalqaro kelishuvga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. BMT barqaror rivojlanish, ayollar ahvolini yaxshilash, inson huquqlari, atrof muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy va samarali boshqarish kabi sohalarda ushbu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan tegishli dasturlarni qabul qilib, rivojlanishning yangi maqsadlarini shakllantirishni davom ettirib kelmoqda.

II-BOB: O'ZBEKISTONNING MINGYILLIK RIVOJLANISHI-DAGI ISHTIROKI

2.1. O'zbekistondagi hozirgi holatni baholash

Biz tez rivojlanayotgan, shiddatkor va ziddiyatli zamonda yashayapmiz. 2000 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari insoniyat hayotini yanada yaxshilash maqsadida bir qancha majburiyatlarni o'z zimmalariga olgan holda XXI asrga mo'ljallangan "Mingyillik Deklaratsiyasi"ni qabul qilgan edilar. 2015 yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning "yo'l xaritasi" hisoblangan ushbu hujjatga ko'ra, davlatlar qashshoqlikka qarshi kurashish, kishilar farovonligini oshirish, xizmatlarning asosiy turlaridan bahramand bo'lishni yaxshilash, kasalliklar tar-qa-li-shini kamaytirish va atrof-muhitni himoyalashga qaratilgan sakkizta aniq maqsadni nazarda tutuvchi Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM), deb nom olgan, rivojlanishning bir-biri bilan o'zaro bog'liq aniq muddatlar, vazifalar va ko'r-satkichlarga ega bo'lish maqsadlarini belgilab oldilar.

Ushbu yo'nalishda inson taraqqiyoti g'oyalari va printsiplarini amalga oshirishda birinchi Prezidentimizning 2010 yil sentyabr oyida BMT sammitida qilgan "Mingyillik taraqqiyot maqsadlari" mavzuidagi nutqi o'ta muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston "Mingyillik Deklaratsiyasi"ni imzolagan mamlakat sifatida, Ming-yillik rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan bir qator tashkiliy, institutsional va qonunchilik tadbirlarini amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda inson taraqqiyoti printsiplarini amalga oshirishning ishonchli huquqiy asosi bo'lgan qonunlar majmui qabul qilindi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan, BMT standartlariga to'liq mos keladigan mil-liy indikatorlar ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda mingyillik rivojlanish maqsadlari "Aholi farovonligini oshirish strategiyasi bo'yicha oraliq hujjat"i asosida O'zbekiston uchun quyidagi sakkiz maqsad belgilab olingan:

- ✓ kam ta'minlanganlikni va qoniqarsiz oziqlantirishni qisqartirish,

- ✓ boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash,
- ✓ ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish,
- ✓ bolalar o'limini kamaytirish,
- ✓ onalar sog'lig'ini yaxshilash, OITS/OIV, sil va boshqa kasalliklarga qarshi kurash,
- ✓ ekologik barqarorlikni ta'minlash,
- ✓ rivojlanish maqsadlarida global sherikchilikni shakllantirish.

Ta'kidlash lozimki, keng qamrovli va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan taraqqiyotning "o'zbek modeli" hamda birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi"da belgilab berilgan kompleks chora-tadbirlar, huquqiy normalar O'zbekistonda MRM vazifalariga to'la javob beradigan davlat siyosatini hayotga izchil tatbiq etish imkonini yaratdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyoti qariyb 4 baravar o'sdi. Ana shu asosda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar 8 baravar, pensiyalarning o'rtacha miqdori, deyarli 10 baravar, ish haqi 18 baravar oshishiga erishildi. Prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekistonda kam ta'minlanganlik darajasi 2015 yilda 1,3 foizga qisqarishi va 13,7 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Odamlarning turmush darajasini va farovonligini oshirish borasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bugun ushbu yo'nalishda davlat va hokimiyat organlari bilan hamkorlikda ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlar, ularning uyushmalari, kengashlari va birlashmalari ham samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, qariyb 300 mingga yaqin kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari manfaatlarini himoya qiluvchi, har yili tadbirkorlar uchun salkam 6 milliard so'mlik kredit ajratilishida ko'maklashayotgan O'zbekiston Savdo sanoat palatasi yoki qishloq xo'jaligi sohasida bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirishga yo'naltirilgan, o'z tarkibiga 70 mingga yaqin fermer xo'jaliklarini birlashtirgan, har yili mamlakatimizda

yetishtiriladigan paxta hosilining qariyb 80 foizi hamda g'allaning 95 foizini yig'ishtirib olayotgan O'zbekiston Fermerlar Kengashi xalq farovonligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. SHu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Ushbu sohaning yalpi ichki mahsulotni shakllantirishga qo'shayotgan ulushi Yevropadagi o'rtacha ko'rsatkichga yaqinlashdi.

Mamlakatimizda kam ta'minlanganlikni va qoniqarsiz oziqlantirishni qisqartirish maqsadida davlat dasturlari ishlab chiqilib, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ham barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga erishilmoqda. SHu bois Toshkent shahrida o'tkazilgan "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzuidagi xalqaro konferentsiyada bu borada O'zbekiston tajribasi ko'p mamlakatlar uchun ibratli ekanligiga bejiz e'tibor qaratilmadi.

Davlatimizda MRM asosida boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'z-bekistonda umumta'lim o'quvi davlat tomonidan kafolatlanadi. 7-15 yoshdagi bolalarning boshlang'ich va umumiy ta'limga qamrab olinishi, shuningdek, aholining savodxonlik darajasi mutlaq o'lchamlarga mos keladi. Bu esa BMTning boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish sohasidagi Mingyillik rivojlanish maqsadlarining bajarilishi O'zbekistonda dunyoning rivojlangan davlatlari darajasida ekanligini tasdiqlaydi. Mamlakatimizda dunyoda e'tirof etilgan ta'lim-tarbiyaning "o'zbek milliy modeli" ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Unga ko'ra, yoshlarga ta'lim berish bilan birgalikda kasb-hunar o'rgatishni nazarda tutuvchi 9+3 tizimi joriy etilgan.

Ushbu yo'nalishda ta'lim-tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir necha normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Vasiylik va homiylik

to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan. SHu bilan birga Prezidentimizning 10 dan ortiq Farmon, Farmoyish va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilinib, ta'lim tizimining huquqiy asoslari mustahkamlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 4950 ta maktabgacha ta'lim muassasasida 600 mingdan ko'proq bolalarning tarbiyalanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mavjud 9739 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 4,5 milliondan ortiq o'g'il-qizlarimiz dunyoning rivojlangan mamlakatlari farzandlari havas qilsa arziydigan eng zamonaviy va shinam ta'lim maskanlarida ta'lim va tarbiya olmoqdalar. Yoshlarning ixtiyoriga 483 ta Bolalar va o'smirlar sport maktablari, 211 ta "Barkamol avlod markazlari" davlat tomonidan beminnat tuhfa qilingan.

2012 yil fevral oyida Toshkentda bo'lib o'tgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzuidagi xalqaro anjumanda ta'kidlanishicha, mamlakatda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etmoqda, ayni paytda jahon tajribasida esa bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmayotganligi kuzatiladi.

MRM doirasida ayollar hamda erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishida ham yaxshi natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston hukumati "Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konventsiyani imzolab, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash hamda gender kamsitishga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Davlat ayollarning ta'limdan teng bahramand bo'lish gender tenglikka ko'maklashishini tan oladi hamda ularni ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Asosiy Qo-musimizning 18- va 46-moddalarida ham xotin-qizlarning barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. SHu bilan birga ayollar barcha saylovlar va umumxalq referendumlarida ishtirok etish, saylash-saylanish huquqiga, davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish va hukumat lavozimlarini egallash, nodavlat tashkilotlari va uyushmalari faoliyatida ishtirok etish huquqiga egadirlar.

MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARINI BELGILOVCHI MEZONLAR



Mamlakat Parlamentiga bo'ladigan saylovlarda deputatlikka nomzodlar ko'rsatish jarayonida xotin-qizlar uchun 30 foiz kvota joriy etilgan. Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan aholining 48 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. O'tgan 23 yil davomida ayollarni himoyalashga qaratilgan 80 ga yaqin milliy va xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat, Oila kodekslari va boshqa turli qonun hujjatlarida ayollarning huquqlari, manfaatlari va erkinliklari mustahkamlab qo'yilgan.

Mingyillik rivojlanish maqsadlarida belgilangan masalalarning mintaqa va davlatlardagi holatini tahlil qiladigan bo'lsak, rivojlanayotgan mamlakatlarda umuman maktabga bormaydigan bolalar soni 140 mln. nafarni tashkil etishi, Yaqin SHarq va shimoliy Afrikada maktabga qatnamaydigan bolalar ulushi 33 foizga tengligi, 130 million bola boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatidan mahrumligi ta'lim sohasiga 10 yil davomida yiliga 7 mlrd. AQSH dollari miqdorida qo'shimcha sarmoya kiritish talab qilinayotgani, jahonda katta yoshdagi savodsiz aholi soni 1 mlrd.ga yaqinni tashkil etishi, shundan 75 foizi ayollar ekanini ko'ramiz. Ushbu muammolarni bartaraf etish bugun insoniyat oldidagi asosiy vazifalardan sanaladi. Aks holda, ular shunday ham og'ir oqibatlarga sabab bo'layotgan tabiiy ofatlardan tashqari inson omiliga bog'liq davomli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi muqarrar.

BMT Mingyillik rivojlanish dasturining qabul qilinishi hozirgi globallashuv sharoitida uning funktsional faoliyatidagi yangicha yondashuv sifatida baholanishi shart. Buni Mingyillik rivojlanish maqsadlariga deklaratsiya asosida huquqiy maqom berilgani va yuqoridagi vazifalarni barcha a'zo mamlakatlar tomonidan amalga oshirish talabi qat'iy qo'yilayotgani, uning dunyo, mintaqalar hamda davlatlar miqyosidagi yillik tahlili Bosh kotib tomonidan Bosh Assambleyaga taqdim etilishi barqaror rivojlanish yo'lidagi jiddiy qadam deyish mumkin.

Xususan, BMT o'z faoliyatini amalga oshirishda yirik davlatlar ta'siriga tushib qolayotgani; ikkinchidan, bugungi dunyoviy o'zgarishlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkilotni tizimli isloh qilish zarurligi; uchinchidan, BMT

Xavfsizlik kengashi tarkibini ko'rib chiqish, ya'ni uni nafaqat yadro quroliga ega bo'lgan beshta davlat, balki jahon siyosatida yetakchi mavqega ega bo'lgan Germaniya, Yaponiya va Braziliya kabi rivojlangan mamlakatlar hisobiga kengaytirish taklif etilmoqda. SHu nuqtai nazardan, a'zo davlatlarning Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda BMTni bosqichma-bosqich isloh qilish va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tinchlik va kollektiv xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga erishish orqali uning xalqaro miqyosdagi mavqeini saqlash tamoyili ko'pchilik mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Jumladan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 20 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyo mintaqasiga tegishli muammolar yechimini topishda aniq taklif va tavsiyalarning ilgari surilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. CHunki O'zbekiston Prezidenti mazkur nutqida jahon siyosatdonlari e'tiborini xalqaro munosabatlarda yangicha yondashuv zarurligi va global muammolar yechimini ayni mintaqalar va davlatlar darajasida hal qilish lozimligiga qaratdi.

Darhaqiqat, ko'pgina mintaqalarda turli ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar sabab qashshoqlik va og'ir sharoitda kun kechirayotgan millionlab odamlar taqdiri, ekologik vaziyatning izdan chiqishi natijasida ba'zi hududlarning xavfli kasalliklar o'chog'iga aylanib qolayotgani, bolalar o'rtasida o'lim holatlarini keltirib chiqaruvchi zotiljam, ichburug', qizamiq va bezgak xastaliklarining ortib borayotgani tom ma'noda xalqaro siyosatda yangicha munosabatlar shakllanishini taqozo qiladi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z ichki va tashqi siyosatini demokratik tamoyillar asosida olib borayotgani, BMT tomonidan ilgari surilayotgan hayotiy dasturlar ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etayotgani mamlakatimizning dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan chetda emasligidan dalolat beradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan Afg'oniston va Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish bo'yicha shartnoma imzolangani mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim qadamlar bo'lgan edi. 2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. 2009 yil mart oyida «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud» haqidagi shartnoma kuchga kirgani olamshumul tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2000 yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasi Ming-yillik sammitidagi nutqida xalqaro terrorizm va nar-kobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish, mintaqaviy xavfsizlik, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tuzilishini isloh qilishga oid aniq takliflarini bildirgan edi. O'zbekistonning jahon hamjamiyati oldida zimmasiga olgan majburiyatlarga sodiq ekanligi hamda ularni o'z vaqtida bajarib borayotganini ko'rsatadi.

Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltirsak. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatishning muqobil yo'llarini izlash bo'yicha dastlab 1993, 1995, 1999 yillari BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida va YeXHT sammitida afg'on mojarosini faqat tinch yo'l bilan hal qilish g'oyasi ilgari surilgan edi. 1997 yili esa Prezidentimiz tashabbusi bilan BMT kotibiyatida «6+2» guruhi tashkil etildi va Nyu-Yorkda muloqot guruhi ish boshladi. 1999 yil 19-20 iyul kunlari mazkur muloqot guruhining Toshkent anjumanida «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari to'g'risida» Toshkent deklaratsiyasi imzolandi. O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan yana bir tashabbusi Orol fojiasiga e'tiborni jalb etganidir. Mazkur fojيانing nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi muammo ekani, ayni paytda mintaqada ekologik muvozanatning keskin buzilishiga olib keladigan gidroinshootlar qurilishi davom etayotgani, bu esa muqarrar xavfli texnogen halokatlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlandi.

O'zbekiston uchun Mingyillik rivojlanish maqsadlari quyidagilardan iborat

Kam ta'minlanganlik va qoniqarsiz oziqlantirishni kamaytirish	2015 yilga kelib kam ta'minlanganlikni ikki baravar kamaytirish
Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish	2015 yilga kelib boshlang'ich va asosiy o'rta ta'lim sifatini oshirish va shu bilan birga umumiy bahramandlik darajasini tutib turish
Gender tengligini rag'batlan-tirish va xotin-qizlarga vakolat berish	2005 yilga kelib boshlang'ich, umumiy asosiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida gender tenglikka erishish 2015 yilga kelib oliy ta'lim tizimida gender balansini yaxshilash
Bolalar o'limini kamaytirish	2015 yilga kelib bolalar o'limini uchdan ikki qismga kamaytirish
Onalar sog'lig'ini yaxshilash	2015 yilga kelib onalar o'limini uchdan bir qismga kamaytirish
OITS/OIV, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish	OITS/OIV OITS/OIV tarqalishini ortga qaytarish va 2015 yilga kelib uni tarqalishini to'xtatish Sil Silning tarqalishini ortga qaytarish va 2015 yilga kelib uni tarqalishini to'xtatish
Ekologik barqarorlikni ta'minlash	Barqaror rivojlanish printsiplarini davlat siyosati va mamlakatda qabul qilingan dasturlariga kiritish hamda nobud bo'lgan atrof muhit zahiralari otga qaytarish 2015 yilga qadar yaxshilangan suv manba'laridan va sanitariya xizmatlaridan bahramand bo'lmish shahar va qishloq aholisining hissasini ko'paytirish
Rivojlanish maqsadlarida global sherikchilikni shakllantirish	Dastlabki va joriy vazifalar Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, savdoni, shu jumladan mintaqaviy va chegaralararo savdo hamda transportni kengaytirish.

Inson taraqqiyoti kontsepsiyasini rivojlantirishda 2000-yilda bo'lib o'tgan BMTning Mingyillik Sammitida "Mingyillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muhim tarixiy xujjat XXI 21 asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik rivojlanish

maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan quyidagi sakkizta aniq maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'ydi: Dastlabki yetti maqsad barcha ko'rinishlardagi: ochlik, daromadning yetarli darajada bo'lmasligi, ta'lim va tibbiy xizmat sifati pastligi, gender tengsizlik va atrof muhit ahvoliding yomonlashuvi ko'rinishidagi kambag'allik darajasini pasaytirishga qaratilgan bo'lsa, sakkizinchi maqsad bunga erishish vositasidir. MRM jahon hamjamiyatining 2015 yilgacha bo'lgan davr uchun global loyiha bo'lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Ming yillik rivojlanish maqsadlari inson taraqqiyoti kontsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, bu boradagi davlat siyosati tegishli ustuvorliklarni belgilab olishni talab qiladi.

2.2. O'zbekistonda mingyillik rivojlanishida ekologik masalalar

Hozirda insoniyatni havotirga solayotgan ekologik inqiroz insonning tabiatga nisbatan cheksiz faoliyati va inson faoliyatini resurslar bilan ta'minlashdagi biosferaning cheksiz bo'lmagan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilikda o'z ifodasini topadi. Ko'pgina g'arb olimlari global ekologik muammolar kompleksini bartaraf qilish, bevosita sayyora aholisining o'sishi, boshqacha aytganda «demografik portlash» bilan bog'liqligiga urg'u berishadi.

Bu aholining ko'p qismi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqatni qo'lga kiritish muammosini yuzaga chiqaradi. Birinchi galda bu muammo yerdan foydalanish bilan bog'liq. So'nggi vaqtlarda inson extiyojining 88 % ni yer, 2 % ni okean, qolgan 10 % ni jonivorlar¹ qoplamoqda.

O'rmonsizlantirishning va o'rmonlar degradatsiyasining davom etishi yerning degradatsiya jarayonini tezlashtirmoqda, suv zaxiralarining kamayishiga olib kelmoqda. Degradatsiya mintaqalariga yaqqol misol qilib Afrika, Hindiston, Eron Islom Respublikasi, Xitoy, Mo'g'iliston va Pokiston, Nepal kabi davlatlarni keltirish mumkin.

¹ Горелов А.А. Экология: Учеб. пособие. – М.: Центр, 1998. – С. 54.

G'arbiy Osiyoning 65 % yeri quruq hisoblanib, degradatsiya va cho'llashish jarayoni bilan yuzma-yuz turibdi, shuningdek, Indoneziya va Kamboja, Xitoy, Lotin Amerikasi va Karib havzasi, Argentina, Kuba, Meksika va Peru kabi davlatlar o'zining ulkan quruq mintaqalari bilan cho'llashish havfi ostida².

Iqlimning keskin o'zgarishi, havo haroratining ko'tarilishi, ozon qatlamining yemirilishi, toza suv tanqisligi, ummonlarning ifloslanishi, cho'llashish jarayoni, tuproq eroziyasi, tabiiy boyliklarning kamayib borishi va boshqa sabablar oqibatida turli iqtisodiy-ijtimoiy muammolar kelib chiqmoqda. Ayniqsa, keyingi paytlarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida toshqin, to'fon, o'rmonlarga o't ketishi kabi ofatlar tez-tez ro'y bermoqda.

Demak, dunyo mamlakatlarining tabiat-jamiyat-tabiat tizimi bo'yicha hamkorligi bugungi kunda eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Xalqaro ekologik hamkorlik printsiplari ilk bor 1972 yilda BMTning atrof-muhit muammolariga bag'ishlangan Stokgol'm konferentsiyasi Deklaratsiyasida umumlashtirildi. 1992 yil iyun oyida Rio-de-Janeyro shahrida BMTning atrof-muhit va rivojlanish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan Konferentsiyasida «Atrof-muhit va rivojlanish to'g'risida»gi Deklaratsiya, shuningdek, «XXI asr kun tartibi» nomli harakat Dasturi qabul qilindi. Deklaratsiyaning ko'plab printsiplari Stokgol'm konferentsiyasi nizomlari printsiplari bilan hamohang ravishda qabul qilindi. Bundan tashqari, konferentsiyada ikkita asosiy global kelishuvni, xususan, Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy Konventsiya va Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konventsiyani imzolashga erishildi. 2000 yil nafaqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti, balki jahon tarixida muhim voqea bo'ldi. Mazkur yilda Nyu-Yorkda o'tkazilgan Mingyillik Sammitida 189 ta davlat rahbarlarining diqqat-e'tiborini kechiktirib bo'lmaydigan ulkan global ekologik muammolarga qaratildi va ular o'z zimmalariga dunyoda insoniyat yashashi uchun qulay sharoit yaratish majburiyatini oldilar. BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha 2002 yilda Yoxannesburgda o'tkazilgan Butunjahon konferentsiyasi ishtirokchilari tomonidan

² Международная Конференция по деградации почв и опустыниванию // <http://ecoclub.nsu.ru/books/Step-7/15>.

millionlab kishilarning toza ichimlik suvga, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda 2015 yilga borib qashshoqlik darajasini 50 foizga kamaytirish bo'yicha Deklaratsiya qabul qilindi³.

BMT tomonidan qabul qilingan konventsiya va dasturlarning siyosiy ahamiyatiga ko'ra bugun insonning tabiatning tabiiy jarayonlariga aralashuvi o'ta chuqurlashib ketdi va bu bilan bog'liq bo'lgan atrof-muhitning o'zgarishi tuzatib bo'lmas holga kelib qolishi va uning o'ta vayronakor oqibatlarini birgina tabiatni muhofaza qilish tadbirlari hisobiga bartaraf etib bo'lmasligi ayon bo'lmoqda.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, yangi demokratik jamiyat qurila boshlagani bir kator muhim, jumladan, atrof-muxit muhofazasi sohasidagi Xalqaro hamkorlik masalalarini xal etilishiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

O'zbekistonning 1992 yil 2 martda BMTga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi tabiat muhofazasi sohasidagi Xalqaro hamkorlik uchun ham keng yo'l ochib berdi. 1992 yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan BMTning II Umumjaxon tabiatni muhofaza qilish kongressida Respublikamiz birinchi bor mustaqil davlat sifatida katnashdi. Xozirgi vaktida O'zbekistonda BMTning atrof-muxit muammolari bilan shug'ullanuvchi 7 ta missiyasi faoliyat ko'rsatmokda⁴, ayniqsa, Orol va Orol bo'yidagi ekologik muammolar Xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib, ushbu yunalishda turli tadbirlar o'tkazilmokda⁵.

Xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi hisoblangan Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni yechishda O'zbekiston XEH masalalariga katta e'tibor bermoqda. Respublikada tabiatni muhofaza qilish ishlari boshqa davlatlar va Xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik qilish orqali amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab Xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi. Respublikamiz XEHning turli yo'nalishlari bo'yicha amalga

³ Конвенции и соглашения // http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/agenda21_ch12.shtm.

⁴ Бирлашган миллатлар ташкилотининг иклим ўзгариши рамкавий конвенцияси бўйича Ўзбекистон Республикасининг биринчи миллий ахбороти // Иклим ўзгариши муаммолари бўйича Миллий комиссия. – Т., 1999. – Б. 28.

⁵ Экологический альманах «Под знаком Арала». – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – С. 19.

oshirilayotgan Xalqaro tadbirlarda faol ishtirok eta boshladi. O'zbekiston Respublikasi 1985 yilda bo'lib o'tgan ozon qatlamini ximoya qilish (Vena) Konventsiyasi, 1987 yilgi ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar bo'yicha Protokol (Monreal), 1989 yilgi (Bazel) xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish Konventsiyasi, 1992 yilgi (Rio-de-Janeyro) biologik rang-baranglikni saqlash Konventsiyasi, 1992 yilgi (Nyu-York) iqlim o'zgarishi tug'risidagi Konventsiyalarga ko'shildi⁶. Ushbu yo'nalishlarda faol harakatlar amalga oshirilmoqda. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi har qanday davlatlararo hamkorlik ekologik vaziyatni mahalliy, regional va umumbashariy darajada yaxshilashning asosidir.

O'zbekiston 1992 yilda imzolangan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a'zosi hisoblanadi. Respublikaning XEH borasidagi faoliyati, ayniqsa Orol muammosiga qaratilgan masalalarda yanada yaqqolroq namoyon bo'lmokda. O'zbekistonning faol ishtiroki va sa'y-harakatlari tufayli Orol dengizi muammolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi Ijroiya qo'mitasi, Orolni qutqarish Xalqapo jamg'armasi tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yilning sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida ta'kidlanganidek, «Ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash, ayniqsa, hozirgi anomal tabiiy o'zgarishlar sharoitida Mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi».

Milliy rivojlanish tamoyillari kesimida Mingyillik Deklaratsiyasining dolzarbligini tan olgan va imzolagan tomon sifatida O'zbekiston Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga erishish borasida o'z majburiyatlarini bekamu ko'st bajarib kelmoqda. Donorlik tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga erishish borasida milliy vazifalar hamda ko'rsatkichlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Ekologik

⁶ Султонов П.С. Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш асослари. – Т.: ЎАЖБНТ, 2004. – Б. 184.

muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bir qator muhim strategik, shu jumladan, «Atrof-muhit gigienasi bo'yicha milliy harakatlar dasturi», «Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va harakatlar Dasturi», «Qurg'oqchilik va cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha Milliy harakatlar dasturi», «Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi», «Qayta tiklanuvchan energiya bo'yicha Milliy strategiya», «Erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha davlat dasturi» va boshqa muhim huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish sohasidagi institutsional salohiyatni kuchaytirishga yo'naltirilgan dasturlarni amalga oshirishda yaqindan ko'mak bermoqda. Mazkur Dastur bilan hamkorlikda biologik xilma-xillikni saqlash, atrof-muhitni himoya qilish hamda qayta tiklanuvchan energiya manbalarini va energiyani tejaydigan texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, yer resurslarini samarali boshqarish sohasida ishlar bajarilmoqda.

O'zbekiston yuritayotgan ekologik siyosat natijasida yurtimizda atrof-muhit sifati yaxshilanmoqda. Mustaqillik yillarida atmosferega ifloslantiruvchi moddalarning tashlanishi 2.1, tashlanayotgan ifloslangan chiqindi suvlar hajmi esa 2 barobarga kamaydi. Pestitsidlardan foydalanish besh martaga kamaydi. Ekin maydonlari tizimida paxta o'rniga don, sabzovot va kartoshka singari qishloq xo'jalik ekinlarini ko'paytirishga katta e'tibor qaratilayotir. Bugungi kunda paxta maydonlari umumiy ekin maydonlarining 30 foizidan oshmaydi⁷. Orolbo'yi mintaqalarida ekologik vaziyatni o'nglash tadbirlari faollik bilan amalga oshirilmoqda, milliy qo'riqxonalar, bog', buyurtmaxona va ekomarkazlar rivojlanmoqda.

Barqaror rivojlanishning umummilliy strategiyasida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha milliy dastur asosida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va bu boradagi ishlarni to'xtovsiz

⁷ Проблема опустынивания и деградации земель весьма остро стоит и в странах СНГ // http://dklg.kmu.gov.ua/forest/control/uk/publish/article_art_id=68513&cat_id=66650.

kuchaytirib borish orqali aholi uchun yaxshi turmush sharoitini yaratishga intilishning ustuvorligi aniq belgilab qo'yilgan. Ayni paytda ushbu harakatlar Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 sentyabrdagi 212-qarori asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 2008-2012 yillarga mo'ljallangan atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakat dasturi tadbirlari bilan birga amalga oshirilayotir.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi "O'zbekistondagi BMTning ming yillik taraqqiyot maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari doirasida aholining turmush darajasini bosqichma-bosqich oshirishga qaratilgan "2011-2015 yillarda O'zbekistonda BMTning ming yilligini rivojlantirish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlari Kompleksi" tasdiqlandi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun ekologik barqarorlikni ta'minlash vazifalari "Bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va Harakat rejasi"ni takomillashtirish, Orolbo'yida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqish va joriy etish, "Qoraqalpog'istonda Amudaryo daryosi del'ftasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini mustahkamlash va to'qayzor o'rmonlarni saqlash" loyihasini joriy qilish, suv havzalarining biologik resurslardan samarali foydalanish va ularda baliq yetishtirishni rivojlantirish bo'yicha biologik asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun suv havzalarining ekologik holatini baholash, energiyaning ekologik toza turlarni tatbiq etish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

2002 yilning aprely oyida Gaaga shahrida bo'lib o'tgan "Biologik xilmaxillik to'g'risida"gi Konventsiya tomonlarining VI anjumanida "O'simliklarni saqlash global strategiyasi" qabul qilindi. Uning asosiy va uzoq muddatli maqsadi o'simlik xilmaxilligining uzluksiz qisqarib borishini to'xtatishdir. SHu maqsadda ushbu dasturga genetik xilmaxillik, sistematika va taksonomiya, ekologik va biologik usullar bilan o'simliklarni himoya qilish


masalalar bo'yicha ham yovvoyi tabiat, ham inson faoliyati sharoitida ilmiy tadqiqotlarni olib borishga yordam ko'rsatish kabi vazifalar kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanish uchun biologik xilmaxillikni saqlab qolishning o'ta muhimligiga katta ahamiyat bergan holda, 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi "Biologik xilmaxillik to'g'risida"gi Konventsiyaga a'zo bo'ldi. 1998 yili hukumatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasining biologik xilmaxillikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasini"ning qabul qilinishi asnosida Konventsiya doirasidagi majburiyatlarni bajarish yo'lida ilk qadam tashlandi. Mamlakat umumiy maydonining 10 foizidan ortig'ida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning barqaror tizimini yaratish mazkur strategiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasining biologik xilmaxilligini saqlash bo'yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasini"ni bajarishga yo'naltirilgan "G'arbiy Tyan-SHanda biologik xilmaxillikni saqlash bo'yicha hamkorlik to'g'risida"gi, "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi, "O'simliklar karantini sohasida hamkorlik to'g'risida"gi hukumatlararo bitimlar imzolandi. Hukumat tomonidan 2008 yil 19 sentyabr kuni qabul qilingan "2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakat dasturi"da ham biologik xilmaxillikni saqlash tabiatni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida aks etgan. O'zbekistonning yuqorida qayd etilgan Konvensiyaga qo'shilishi biologik xilmaxillikni saqlash, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish sohasida tashqi investitsiyalarni jalb qilish hamda xalqaromoliyaviy manbalardan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Hozirgi paytda mamlakatimiz bioxilmaxillikni saqlash masalalari bo'yicha bir qator xalqaro moliya institutlari va tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Konventsiya doirasida respublikada "G'arbiy Tyan-SHanning bioxilmaxilligini saqlab qolish bo'yicha transchegaraviy loyiha" amalga tatbiq etildi. Loyiha mablag'lari CHotqol biosfera qo'riqxonasi va Ugom-CHotqol

milliy bog'i infratuzilmasini yaxshilashga yo'naltirildi. Bundan tashqari, mintaqaviy miqyosda (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston) biomintaqaviy rejani tuzish bo'yicha ishlar olib borilyapti.

21 asrda insoniyatni resurslarga bo'lgan extiyojini oshishi



- Ichimlik suviga 11 barobar
- Haydalgan yerga nisbatan 2 barobar
- Transportga nisbatan 10 barobar
- Neft mahsulotlariga nisbatan 7 barobar
- Elektr energiyaga nisbatan 21 barobar
- O'simliklar dunyosi 20 foizga kamaygan.

Shuningdek, GEF va BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda bioxilmaxillikni saqlab qolish uchun model sifatida Nurota-Qizilqum biosfera rezervatini tashkil etish” va “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo daryosi del’tasi to‘qay o‘rmonzorlarini saqlash va muhofaza etiladigan hududlar tizimini mustahkamlash” loyihasi amalga oshirildi.

1997 yildan boshlab O‘zbekiston “Yo‘qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to‘g‘risida”gi Konventsiyani (Vashington, 1973 yil) imzolagan tomon sifatida respublika hududidan qo‘riqlanadigan turlarni olib chiqish va respublikaga olib kirishga ruxsat berish tizimini joriy etib, savdo operatsiyalarini litsenziyalashtirish, hayvonlar va o‘simliklarni olib kirish va olib chiqishning doimiy nazoratini yo‘lga qo‘ydi.

“Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish bo‘yicha Konvensiya (Bonn, 1979 yil) doirasida Jizzax viloyatidagi “Tuzkon”, Buxoro viloyatidagi “Dengizko‘l” va “Qoraqayir”, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Oqushpa” ko‘llarida ornitologiya qo‘riqxonalari yaratildi. Samarqand, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarining cho‘l tumanlarida yo‘qolib borish xavfi ostidagi qush — tuvaloqning uyalashi, ko‘payishi va uchib o‘tish joylarini hamda Ustyurt platosida ko‘chib yuruvchi sayg‘oqlarning populyatsiyasini muhofaza qilish maqsadida buyurtmaxonalar tashkil etildi. O‘zbekistonda bioxilmaxillik qisqarishining ekologik muammolari taranshegaraviy xarakterga ega. SHu bois, respublikamizda fauna ob‘ektlarini muhofaza qilish va saqlash maqsadida Qozog‘iston bilan “Sayg‘oqni saqlab qolish, tiklash va undan barqaror foydalanish bo‘yicha hamjihatlik haqidagi Memorandum va Harakat rejasi” imzolandi. SHuningdek, Afrika — Yevroosiyoda ko‘chib yuruvchi suv-botqoq qushlarini muhofaza qilish bo‘yicha bitim imzolangan bo‘lib, mamlakatimiz “Suvda suzuvchi qushlarni va Markaziy Osiyo uchish yo‘lidagi suv-botqoq hududlarini muhofaza qilish strategiyasi”ni ishlab chiqish loyihasida ishtirok etdi. “Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suv-botqoq joylari to‘g‘risida”gi Konventsiya (Ramsar, 1971 yil) talablarini bajarish va respublikada suv-botqoq hududlari

bioxilmaxilligini saqlash maqsadida aniq yo'naltirilgan ishlar olib borilmoqda. Tayyorlangan hujjatlar asosida "Dengizko'l" va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq hududlari sifatida Ramsar ro'yxatiga kiritildi. Yovvoyi tabiatni muhofaza qilish xalqaro fondi (WWF) bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Sudoche" ko'li bioxilmaxilligini muhofaza qilish va monitoringi bo'yicha loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida mazkur ko'lni xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq hududlari ro'yxatiga kiritish uchun asosli hujjatlar tayyorlandi.

Respublika Fanlar akademiyasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston florasida o'simliklarning 4600 dan ortiq turi mavjud. Ularning 3000 dan ortiq turi yovvoyi holda o'sadi. Respublika faunasi 97 tur sutemizuvchilar, 424 tur qushlar, 58 tur sudralib yuruvchilar, 83 turdagi baliqlardan iborat. Bu yurtimiz flora va faunasi naqadar boy ekanligidan dalolat beradi.

O'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida Fanlar akademiyasining Bioxilmaxillikdan foydalanish bo'yicha Idoralararo komissiya tomonidan 1991 yildan boshlab hayvonot dunyosini tabiatdan olishning ruxsat etilgan kvotalari, 1993 yildan esa o'simlik xomashyosini tayyorlash bo'yicha kvotalari o'rnatildi.

Davlatimizning uzoqni ko'zlagan, kelajak avlodlar hayoti uchun qulay sharoit yaratishni ta'minlashga yo'naltirilgan ekologik siyosati yangi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni, qo'riqxonalarni, milliy bog'larni, biosfera rezervatlarini yaratishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi flora va faunani muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi qonunlarida belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy maqomi hamda mintaqada global ta'siriga ega bo'lgan transchegaraviy ekologik muammolarni hal etishdagi

o'rnidan kelib chiqqan holda, Xalqaro konventsiyalar hamda Mingyillik maqsadlarida bayon etilgan yo'nalishlarning bajarilishi o'ta dolzarb vazifaga aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil bozor islohotlari, iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar, aniq yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat tufayli BMTning Mingyillik maqsadlarining bajarilishi va mamlakatimizning barqaror rivojlanish, biologik xilmaxillikning saqlanishiga xizmat qilmoqmoqda.

Bezgak O'zbekistonda XX asr o'rtalarida keng tarqalgan edi. 1950 yillar oxiridan boshlab, sanitariya, sog'lomlashtirish ishlari, tibbiy xizmatni yaxshilash, ko'lmak suv havzalarini quritish va chivinlarni kimyoviy hamda biologik usulda qirish orqali kasallikni nazorat ostiga olish imkoni yaratildi. Biroq, bezgakni nazorat qilish bo'yicha choralar yetarlicha ko'rilmaganligi natijasida 1995 yildan boshlab bezgak bilan kasallanish ko'paydi. Hozirgi kunda bu kasallikni yuqtirish hollarini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rilmogda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, faolli ayollarda 20 yoshda va erkaklarda 18 yoshda boshlanadi. Ular bilim va axborotga ega emasligi tufayli bu hol OIV/OITS bilan kasallanish xavfini yuzaga keltiradi.

Atrof-muhit toza bo'lmasa, bizda kelajagimizga bog'liq bo'lgan samarali iqtisodiyot, barqaror jamiyat va sog'lom odamlar bo'lmaydi. Yer va suv, nabotot va hayvonot, yer osti boyliklari singari resurslardan nazoratsiz foydalanish atrof muhitga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash O'zbekistondagi muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu muammo suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish va sug'oriladigan maydonlarda, qishloq xo'jalik faoliyatida kimyoviy moddalarni qo'llash oqibatida yuzaga keladi. Mamlakatimiz meva va sabzavotlari mo'l-ko'lligi bilan mashhur, biroq ularni yetishtirishda kimyoviy moddalar va pestitsidlarni qo'llash oziq-ovqat mahsulotlari ifloslanishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, ayniqsa, bolalar orasida kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ko'pchilik yoshlar mamlakatda ekologik sharoitni sog'lomlashtirish maqsadida hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda ishtirok etmoqdalar. MRMda insonning toza suvdan bahramand bo'lishini aniqlash uchun nazorat

ko'rsatkichlari keltirilgan. Odamlarga o'z uylarida toza suvdan foydalanish imkoni berilmasa yoki ularda suvdan resurs sifatida foydalanish imkoni bo'lmasa, ularning sog'lig'i yomonlashishi, qashshoqlashuvi va nochor ahvolga tushishi ham mumkin.

O'zbekiston uchun eng katta ekologik muammo Orol dengizi muammosidir. 1960–1990 yillarda Orol dengizi maydoni 66900 kvadrat kilometrdan 36500 kvadrat kilometrga qisqardi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yillar oxiriga kelib dengiz o'z hajmining 90%ni yo'qotdi.

Orol dengizi halokati hududi Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga oladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Qizil kitobiga 301 o'simlik turi va 184 hayvon turi kiritilgan.

O'zbekistonda atmosferani eng ko'p uglerod oksidi (53%) va oltingugurt II oksidi (15%) ifloslantiradi.

Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaning yuqori darajada ifloslanishi Andijon shahrida va nisbatan yuqori darajada ifloslanish Qo'qon, Navoiy va Toshkent shaharlarida kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish maqsadida har tomonlama ko'maklashuvchi ko'pgina xalqaro tashkilotlarga a'zodir. O'zbekiston hukumati xavfsizlik, giyohvand moddalarni nazorat qilish, odamlar bilan savdo qilish, terrorizm, yagona iqtisodiy va axborot makonini yaratishga oid masalalarda mintaqaviy hamkorlikda faol qatnashadi. Bu hamkorlik SHanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati (EvrOsIH), Osiyo rivojlanish banki (ORB) va boshqa tashkilotlar doirasida rivojlanmoqda. O'zbekistonda yashovchi yoshlar uchun global hamkorlik uzoq muddatli ustuvor vazifa hisoblanadi, chunki 8-maqsadda yoshlar bandligi va buning uchun imkoniyat yaratish muhimligi ta'kidlanadi. Ish bilan ta'minlash milliy strategiyalari rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'rsatiladigan xalqaro yordamni oshirish orqali yoshlar ishga joylashishi uchun jiddiy imkoniyatlarni ta'minlab beradi va kafolatlaydi.

Ijtimoiy rivojlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim va fan sohalari 2004 yilda texnik yordam umumiy hajmining 60%ni tashkil etdi. Hukumat tashkilotlari BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etishni kengaytirmoqda, shuningdek tashqi yordamni muvofiqlashtirmoqda. 1996 yildan buyon ORB O'zbekistonda 19 ta loyiha uchun umumiy summasi 914,7 million AQSH dollari miqdoridagi 21 ta kredit, shuningdek texnik ko'mak bilan 62 ta loyiha uchun 32 million AQSH dollari miqdoridagi grantlarni ajratdi. O'zbekiston hukumati 2004–2009 yillarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish uchun rivojlantirish maqsadida ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha sheriklardan 240 millionga yaqin AQSH dollari oladi.

2.3. O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash

Bugungi kunda O'zbekistonda aholining 60% dan oshig'i yoshlarga to'g'ri keladi, bu esa mamlakat ulkan zaxiraga ega ekanligidan dalolat beradi. Biz jamiyat rivojlanishi va gullab-yashnashini istasak, bu zaxiradan juda oqilona foydalanilishini ta'minlashimiz lozim. Jahondagi 189 ta mamlakat yetakchilari tomonidan 2000 yilda qabul qilingan Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM)da bu mamlakatlar hukumatlarini hayot tarzini yaxshilash va barcha insonlar, ayniqsa, yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish uchun sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa jabhalarga yetarlicha sarmoya kiritishga undovchi bir qator ustuvor yo'nalishlar o'rnatilgan.

Yoshlar o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishlariga yordam berish maqsadida BMT milliy MRMga erishishni qo'llab-quvvatlash doirasida ularga qaratilgan faoliyatini yanada kengaytirmoqda.

Aholi turmush darajasini oshirish respublikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Turmush darajasi odamlar bahramand bo'lishi mumkin bo'lgan

barcha ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarning majmui va o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi murakkab tushunchadir.

O'zbekistonda yoshlar aholining 60%dan ziyodini tashkil qiladi, mamlakat aholisining o'rtacha yoshi esa 25 yoshdir. SHu bois, qo'shimcha ish joylari hamda turmush farovonligini oshirish uchun imkoniyat yaratish orqali yoshlarni qo'llabquvvatlashga jiddiy e'tibor berish zarur.

O'zbekistonning mingyillik rivojlanish dasturi bo'yicha barqaror rivojlanish strategiyasi tamoyili asosida yildan-yilga ijtimoiy qatlamning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari oshib borayotganini ko'rish mumkin. Bu albatta quvonarli holat.

- ✓ Oxirgi yillarda o'rtacha umr davomiyligi erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham 0,9%ga oshdi va o'rtacha 75,8 yoshga yetdi.
- ✓ Oyiga 250 AQSH dollari miqdoridagi daromadi bo'lgan o'rtacha besh kishidan iborat o'zbek oilasi uchun, uni iste'mol ko'lami samarasi tufayli oyiga 50 AQSH dollari ishlab topuvchi bir kishiga qiyoslaganda, ta'minlanganroq hisoblanadi. Bu ko'lam samarasi uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun harajat birga qilinishini anglatadi.
- ✓ Uy xo'jaligi byudjetini tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda «daromad nuqtai nazaridan kam ta'minlangan» kishilar «mulk nuqtai nazaridan boy» bo'lishi mumkin, chunki, masalan, 98%dan ortiq aholining uy yoki kvartirasi, 86%ning yer uchastkalari, 87%ning televizori, 38%ning sovutgich va 12%ning avtomobili bor.
- ✓ 2002 yilgi tibbiy-demografik tadqiqotga ko'ra, tana massasi kam go'daklarning umumiy hissasi 1996 yildan 2002 yilgacha bo'lgan davrda 18%dan 8%gacha kamaygan.

MDH mamlakatlarining ko'pchiligida boshlang'ich maktabga qabul qilish va davomat ko'rsatkichlari pasaygan bir paytda, O'zbekiston o'tish davri bilan bog'liq ma'lum qiyinchiliklarni yenga oldi va ko'rsatkichlarni yetarlicha yuqori darajada saqlab qoldi. Ta'limdan umumiy bahramand bo'lish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan va unga global MRM uchun dastlabki yil bo'lgan 1990 yildayoq erishilgan. 2013 yilda aholi yalpi

savodxonlik darajasi 99%ni tashkil etgan. Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish yoshlarning ta'lim va mehnat faoliyatidagi ishtirokiga bog'liq. Yuqori sifatli ma'lumotga ega yoshlar milliy va global bozorda ishga joylashish uchun monand ravishda imkoniyatga ega bo'lishi mumkin.

- ✓ 1997 yilda hukumat Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qildi, dastur umumiy majburiy ta'limni 9 yillikdan 12 yilgacha uzaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonni 2009 yilgacha cho'zishga qaratilgan.
- ✓ 2002 yildan buyon hukumat dasturlari kam daromadli oilalarni maktab kutubxonalari tomonidan beriladigan bepul darsliklar bilan ta'minlamoqda.
- ✓ Aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun umumta'lim maktablari soni 2001 yildan beri o'zgarmay kelmoqda — ular mamlakatdagi maktablarning 0,9% ni tashkil qiladi.

O'zbekiston hukumati **o'g'il va qiz bolalar uchun ta'lim olishda teng huquqlilikni** ta'minlash muhimligini tan oladi hamda mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotida ayollar huquqi va vakolatini kengaytirishni qo'llabquvvatlaydi. Xotin-qizlar huquqlari kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida Konventsiya O'zbekiston tomonidan 1995 yilda ratifikatsiya qilingan. Natijada Konventsiya doirasida ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollar ishtirokining muhimligi ta'kidlangan milliy qonunlar majmui ishlab chiqilgan. Ta'lim, fan, adabiyot va san'at sohalarida iste'dodli qizlarga beriladigan «Zulfiya» nomidagi milliy mukofot ayollarga ko'rsatiladigan alohida e'tibor namunasi hisoblanadi.

- ✓ O'zbekistonda o'g'il va qiz bolalarning boshlang'ich va o'rta ta'limda gender mutanosibligi to'liq kuzatiladi.
- ✓ Doktoranturada o'qiydigan qizlar soni 1995 yildagi 12% dan 2005 yilda 37,1% gacha oshdi.
- ✓ Parlamentda ayollar hissasi 1994 yildagi 6% dan 2015 yilda 19% gacha oshdi.
- ✓ Xotin-qizlar Qo'mitasi rahbari ayni vaqtda bosh vazir o'rinbosari hamdir. Viloyatlarda xotin-qizlar qo'mitalari raislari hokim o'rinbosari lavozimini

egallashadi va ayollar manfaatini himoya qilishga mahalliy darajada javob berishadi.

O'zbekiston ham go'daklar o'limi va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darajasini qisqartirishni maqsad qilib qo'ydi. MRM doirasidagi muhim milliy maqsadlardan biri 2015 yilga borib bolalar o'limini uchdan ikki qismga qisqartirishdan iborat. Yoshlar o'z mahallalarida oddiy tibbiy xizmat ko'rsatish, ular orasida bolalar kasalliklari, reproduktiv salomatlik, sanitariya va gigiena haqida bilimlar yoyish orqali bolalar o'limi darajasini qisqartirishda hamkorlik qilishlari mumkin.

- ✓ Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yigirma yil davomida mamlakatda go'daklar o'limi darajasi 1995 yildagi 1000 tirik tug'ilganga nisbatan 26 tadan, 2015 yilda 6,2 gacha muqim pasayib bormoqda.
- ✓ Homilador ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish xizmatlari tug'ishdan oldingi besh oydan boshlab, tug'ishdan keyingi bir oy davomida ko'rsatiladi.
- ✓ O'zbekistondagi bolalarning 53%dan ortig'ida A vitamini tanqisligi kuzatilgan. 2003 yildan buyon mamlakatda YuNISEF ko'magi bilan 2,2 millionga yaqin bola yiliga ikki marta A vitamini kapsulalarini qabul qiladi.
- ✓ 1999 yildan beri yettita viloyatda 4 milliondan ortiq tug'ish yoshidagi ayollarga va ikki yoshgacha bo'lgan bolalarga tarkibida temir va foliy kislotasi (V6 vitamini) bo'lgan qo'shimchalar berilmoqda.

Ayollar salomatligi davlat uchun muhim vazifadir. Sog'lom avlodga ega bo'lish uchun reproduktiv yoshdagi ayollarga tegishli g'amxo'rlik ko'rsatilishi lozim. O'zbekistonda turmush sharoiti bilan uzviy bog'liq bo'lgan, sifatli sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati sharoitidan yetarlicha bahramand bo'lmaslik bilan bog'liq onalar o'limi holatlari ko'zga tashlanmoqda. O'zbekistonda onalar salomatligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi, anemiya (kamqonlik) ayollar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda yosh onalar ham biologik, ham ijtimoiy sabablarga ko'ra, nochor guruhlar qatoriga kiradi. Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yosh onalar ilk bor 19–21 yoshda farzandni dunyoga keltiradilar. SHuning uchun ularni reproduktiv

salomatlikka oid o'quv dasturlariga jalb qilish lozim, bu jamiyat rivojiga ham, xavfsiz onalikka ham ko'maklashadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2005 yilda mamlakatda umumiy hisobda OIV yuqtirilgan 7810 holat ro'yxatga olingan. Bu son Markaziy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichdir. Sil kasalligi O'zbekistonda asosan o'smirlar, yoshlar va tug'ruq yoshidagi ayollarga ko'proq yuqadi. Bu guruhlarda kasallanish koeffitsienti 1999–2003 yillar davomida 23% dan oshdi. Orol dengizi mintaqasida sil kasalligi ko'rsatkichi eng yuqori.

Bezgak O'zbekistonda XX asr o'rtalarida keng tarqalgan edi. 1950 yillar oxiridan boshlab, sanitariya, sog'lomlashtirish ishlari, tibbiy xizmatni yaxshilash, ko'lmak suv havzalarini quritish va chivinlarni kimyoviy hamda biologik usulda qirish orqali kasallikni nazorat ostiga olish imkoni yaratildi. Biroq, bezgakni nazorat qilish bo'yicha choralar yetarlicha ko'rilmaganligi natijasida 1995 yildan boshlab bezgak bilan kasallanish ko'paydi. Hozirgi kunda bu kasallikni yuqtirish hollarini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rilmogda.

- ✓ Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, faolii ayollarda 20 yoshda va erkaklarda 18 yoshda boshlanadi. Ular bilim va axborotga ega emasligi tufayli bu hol OIV/OITS bilan kasallanish xavfini yuzaga keltiradi.
- ✓ Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2005 yilda OIV yuqtirish holatlarining 54% giyohvand moddalarni in'eksion yo'l bilan iste'mol qiluvchilarga to'g'ri keladi, ularning ko'pchiligi 16–23 yoshdagilardir.
- ✓ 1999–2003 yillar davomida Qoraqalpog'istonda sil kasalligidan o'lim darajasi 34%ga oshdi va 2004 yilda u mamlakatda umumiy ko'rsatkichdan ikki barobar yuqori bo'ldi.
- ✓ Respublikada bezgak eng ko'p uchraydigan Surxondaryo viloyatida 1999 yildan 2004 yilgacha bo'lgan davrda bezgak tarqalishi darajasi 2003 yildagi 66 holatdan 2004 yildagi 30 holatga tushib, barqaror tarzda pasaydi

XULOSA

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston "Mingyillik Deklaratsiyasi"ni imzolagan mamlakat sifatida, Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan bir qator tashkiliy, institutsional va qonunchilik tadbirlarini amalga oshirgan va oshirmoqda. Mamlakatimizda inson taraqqiyoti printsiplarini amalga oshirishning ishonchli huquqiy asosi bo'lgan qonunlar majmui qabul qilindi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilgan, BMT standartlariga to'liq mos keladigan milliy indikatorlar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda BMTning bir qator tuzilmalari – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Jahon banki, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Bolalar jamg'armasi, Aholishunoslik jamg'armasi, Taraqqiyot dasturi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasi, OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi kabi tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatayotganligi ayniqsa ahamiyatlidir.

O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashtirilgan institut hamda agentliklari bilan hamkorligini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgiladi. Hususan, Orolbo'yi hududi bugungi kunning keng ko'lamli global ekologik fojialaridan biriga jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor qaratilganini e'tirof etish mumkin. Ma'lumki, Orolbo'yini tobora kengayib borayotgan cho'l qamrab olmoqda. Bu nafaqat qurib borayotgan dengiz atrofidagi, balki undan uzoqdagi hududlarda ham hayot sifati, aholi salomatligi va genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini ming yillikni rivojlantirish maqsadlari dasturi doirasida ko'rilayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

«Qurib borayotgan Orol muammosi - ushbu mintaqada yashayotgan, BMTdek nufuzli tashkilotga umid bilan yordam so'rab murojaat qilayotgan millionlab odamlarning muammosidir».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston islohotlari chuqurlashtirish yo'lida-T., «O'zbekiston», 1995. 60-62-77 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura. T.1. –T., «O'zbekiston», 1996. - B.364.
3. Karimov I.A. BMT SAMMITining mignyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlagan nutqi. Toshkent – 2010 yil, 20 sentyabr'
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., «O'zbekiston», 1997. 121-124 b.
5. Karimov I.A. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti-to'kin hayot manbai-T., «O'zbekiston», 1998. -B. 411.
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T 7. –T., «O'zbekiston», 1999. -B.410.
7. Birlashgan millatlar tashkilotining iqlim o'zgarishi ramkaviy konventsiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining birinchi milliy axboroti // Iqlim o'zgarishi muammolari bo'yicha Milliy komissiya. – T., 1999. – B. 3-12.
8. Bizning Bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xabarnoma. – Toshkent, 2005. – № 1.– 23–40 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: Uzbekiston, 1997. – 315 b.
10. Doklad konferentsii ministrov po okrujayuyemy srede i razvitiyu v ATR, 2000 g.

11. Konventsiya OON po borьbe s opustynivaniem, 12 oktyabrya 2000 g.
12. Mejdunarodnaya konventsiya OON po borьbe s opustynivaniem v stranax, kotorye ispytyvayut serьeznuyu zasuxu ili opustynivanie, 12 sentyabrya 1994 g.
13. Proekt protokola o registrax vybrosov i perenosa zagryazniteley k Orxusskoy Konventsii o dostupe k informatsii, uchastii obщestvennosti v protsesse prinyatiya resheniy i dostupe k pravosudiyu po voprosam, kasayushimsya okrujayushchey sredы. MR.RR/1/2003.
14. Rezolyutsiya OON 49/115. Provedenie vseirnogo dnya borьby s opustynivaniem i zasuxoy, 30 yanvarya 1995 g.
15. Vodnye resursy, problema Arala i okrujayushchaya sreda. Общ. red. Umarov U. – T.: Universitet, 2000. – 378 s.
16. O`zbekistonda atrofmuhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish. Faktlar va raqamlar 2000-2004. Statistika to`plam. Toshkent, O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi, 2006.
17. O`zbekiston ekologik harakati dasturi. Toshkent, 2009.
18. O`zbekiston ekologik harakati: savollar va javoblar. Toshkent, 2009.
19. O`zbekiston ekologik harakati Ustavi, Toshkent, 2009.
20. Natsionalnyy doklad o sostoyanii okrujayushchey prirodnoy sredы i ispolьzovanii prirodnykh resursov v Respublike Uzbekistan (1996 god). Общ. red. Xabibullaeva A.SH. – T., 1998. – 137 s.
21. Nigmatov A.N. Tabiat, jamiyat, ma`naviyat. – T., 2009. – 152 b.
22. Sultonov P.S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – T.: O`AJBNT, 2004. – 232 b.
23. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. – Qarshi: Nasaf, 2003. – 175 b.
24. Fayziev SH., Xamraev O`. Saylov va O`zbekiston ekologik harakati. – T.: O`zbekiston, 2009. – 236 b.